



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2026-yil “ 9 ” yanvar

6-son

Toshkent shahri

**Bahorgi semestr o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin talabalar o‘qishini
ko‘chirish va qayta tiklash bo‘yicha arizalarni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish
hamda ularni ko‘rib chiqishni tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida nizomga muvofiq

B U Y U R A M A N:

1. Bahorgi semestr o‘quv mashg‘ulotlari boshlanishidan oldin respublika davlat oliy ta’lim tashkilotlararo talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash bo‘yicha arizalarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus elektron platformasi – transfer.edu.uz yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan biri orqali **2026-yilning 10-yanvardan 20-yanvargacha** (shu kuni ham) onlayn qabul qilinishi (ro‘yxatdan o‘tkazilishi) belgilansin.

2. **Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi** (A.Abdullayev), **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** (N.Ochilov), **Oliy ta’lim tashkilotlari departamenti** (A.Mamanazarov):

maxsus elektron platformalarda talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash to‘g‘risidagi arizalarni ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish bo‘yicha vakolatli komissiyalarga (tizimida oliy ta’lim tashkilotlari bo‘lgan vazirlik va idoralar, oliy ta’lim tashkilotlari) tegishli profillar yaratib berilishini ta’minlasin;

talabalar o‘qishini ko‘chirish, tiklash jarayonida ochiq-oshkoralik, shaffoflikni ta’minlash maqsadida bir oliy ta’lim tashkiloti doirasida talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash bo‘yicha arizalarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining transfer.edu.uz maxsus elektron platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tkazish imkoniyatini yaratsin;

maxsus elektron platformaning belgilangan muddatlarda uzluksiz ishlashini ta’minlasin.

3. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'qishni ko'chirish bo'yicha ro'yxatdan o'tgan talabalarning arizalarini ko'rib chiqish maqsadida barcha davlat oliy ta'lim muassasalari va filiallarda alohida komissiya tashkil etilsin.

4. O'qishni ko'chirish bo'yicha ro'yxatdan o'tgan arizalarni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining o'z vakolati doirasida ko'rib chiqish komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik komissiyasi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Vazirlik komissiyasiga:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining transfer.edu.uz maxsus elektron platformasi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali onlayn ro'yxatdan o'tkazilgan arizalarni ko'rib chiqib qaror qabul qilish vakolatiga ko'ra tizimida oliy ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirliklar va idoralar, oliy ta'lim tashkilotlariga taqsimlanishi va maxsus elektron platforma orqali yo'llanishini ta'minlash;

respublika oliy ta'lim tashkilotlararo o'qishni ko'chirish bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi vakolati doirasida ko'rib chiqiladigan arizalar bo'yicha Vazirlik komissiyasining yig'ilishlarini tashkil etish va qabul qilingan qarorlar bo'yicha tegishli oliy ta'lim tashkilotlariga ko'rsatmalar berish hamda ariza mualliflariga maxsus elektron platforma orqali javob yo'llanishini ta'minlash vazifalari yuklansin.

6. Oliy ta'lim tashkilotlari rektorlari va direktorlari:

fuqarolardan o'qishini ko'chirish, qayta tiklash bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan arizalarni o'z vakolati doirasida ko'rib chiqish komissiyasi faoliyatini tashkil etsin;

o'qishni ko'chirish, qayta tiklash masalalari bo'yicha fuqarolarni qiziqtirgan savollarga tezkor javob berish va ularning tegishli hujjatlaridan (akademik ma'lumotnoma, transkript) nusxa olishlariga zarur shart-sharoit yaratish maqsadida oliy ta'lim tashkiloti komissiyasi a'zosi bo'lgan 2-3 nafar tajribali mas'ul xodim ajratsin hamda tegishli telefon raqamlarini oliy ta'lim tashkiloti rasmiy veb-saytida e'lon qilsin;

oliy ta'lim tashkiloti vakolati doirasida ko'rib chiqiladigan arizalarni **2026-yilning 10-fevraliga qadar** tahlil qilib qaror qabul qilsin va natijasi bo'yicha maxsus elektron platforma orqali ariza muallifini xabardor qilsin;

ro'yxatdan o'tgan arizalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom hamda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi majlislarining bayonlarida belgilangan topshiriqlarga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlasin.

7. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi (F.G‘aybullayev), Oliy ta’lim tashkilotlari departamenti (A.Mamanazarov) va Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (Q.Artikov) o‘qishni ko‘chirish, qayta tiklash jarayonlari to‘liq yakunlanganidan so‘ng Vazirlik komissiyasi faoliyatiga jalb etilgan xodimlarni belgilangan tartibda rag‘batlantirish choralarini ko‘rsin.
8. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir v.v.b.



S. Radjabov



Hujjat haqiqiyligini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin